

## BOBUR SHE'RIYATI VA ADABIY TA'SIR MASALASI

**Xolikulova Gulsanam Yorqulovna,**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi  
[gulsanamyorqulovna@mail.ru](mailto:gulsanamyorqulovna@mail.ru)

**Annotatsiya.** Adabiy ta'sir va ijodiylik bir ijodkor adabiy merosining boshqa ijodkor asarlari yaralishiga, o'z badiiy niyatlari, ijodiy g'oyalari uchun maqbul poetik shakl, mazmun topa olishiga, bir necha tillarda ijod etishiga zamin bo'ladi. Bu kabi adabiy, ijodiy ta'sir shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning she'rlari ta'sirida vujudga kelgan asarlar misolida ham kuzatiladi. Mazkur maqolada Boburning Xoja Kalon, Kamoliddin Binoiy, Xoja Abulbaraka Firoqiylar o'rtasidagi she'riy yozishmalari tahlil etildi va umumlashma xulosalar berildi.

**Kalit so'zlar.** Bobur, adabiy ta'sir, turkiy va forsiy adabiyot, ikkitillilik, badihago'ylik.

## BABUR'UN ŞİİRİ VE EDEBÎ ETKİSİ SORUNU

**Kholikulova Gülsanam Yorkulovna,**

Sharof Rashidov Semerkand devlet universiteti'nde doçent,  
filoloji bilimlari adayı

**Özet.** Edebi etki ve yaratıcılık, bir yaratıcının edebi mirasının diğer yaratıcılar tarafından kullanılmasını, sanatsal amaçları ve yaratıcı fikirleri için kabul edilebilir bir şiirsel biçim ve içerik bulunmasını ve birçok dilde yaratılmasını sağlar. Bu tür edebî ve yaratıcı etkilenme, hükümdar ve şair Zahiriddin Muhammed Babür'ün şiirlerinden etkilenerek ortaya çıkan eserlerde de görülmektedir. Bu makalede Babür'ün Hoca Kalon, Kamoliddin Binoi ve Hoca Ebulbaraka Firoki ile olan şiirsel yazışmaları incelenmekte ve genel sonuçlara varılmaktadır.

**Anahtar kelimeler:** Babür, edebi etkilenme, Türk ve Fars edebiyatı, iki dillilik, Badihagoy.

## ПОЭЗИЯ БАБУРА И ПРОБЛЕМА ЛИТЕРАТУРНОГО ВЛИЯНИЯ

**Холикулова Гульсанам Ёркуловна,**

доцент Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова,  
кандидат филологических наук

**Аннотация.** Литературное влияние и творчество создают основу для того, чтобы литературное наследие одного творца привело к созданию произведений других творцов, чтобы он мог найти приемлемую поэтическую форму и содержание для своих художественных намерений и творческих идей, чтобы творить на нескольких языках. Подобное литературное и творческое влияние наблюдается и на примере произведений, созданных под влиянием стихов правителя и поэта Захириддина Мухаммада Бабура. В данной статье анализируется поэтическая переписка Бабура с Ходжой Калоном, Камолитдином Бинойи и Ходжой Абулбараккой Фироки и делаются обобщенные выводы.

**Ключевые слова.** Бабур, литературное влияние, тюркская и персидская литература, двуязычие, импровизация.

## THE ISSUE OF BABUR'S POETRY AND LITERARY INFLUENCE

**Kholikulova Gulsanam Yorkulovna,**

associate professor of Sharof Rashidov Samarkand state university,  
candidate of philology

**Annotation.** *Literary influence and creativity are the basis for the creation of works by one creator, the ability to find an acceptable poetic form and content for one's artistic intentions and creative ideas, and the creation of works in several languages. Such literary and creative influence is also observed in the example of works created under the influence of the poet Zahiriddin Muhammad Babur. This article analyzes Babur's poetic correspondence between Khoja Kalon, Kamoliddin Binoiy, and Khoja Abulbaraka Firoqi, and provides generalized conclusions.*

**Keywords.** *Babur, literary influence, Turkic and Persian literature, bilingualism, improvisation.*

Qadim zamonlardan boshlab turli xalqlar, millatlar o'rtasida yaqin iqtisodiy, madaniy aloqalar mavjud bo'lgan. Bu yaqinlik ilm-fan, badiiy adabiyot sohasida ham o'z ifodasini topgan. Biror ijodkorning asarlari ikkinchi bir ijodkorga o'z badiiy niyatlari, o'zi izlayotgan ijodiy g'oyalari uchun maqbul poetik shakl, mazmun topa olishiga zamin bo'lgan yoki unga javoban yaratilgan. Bu kabi adabiy, ijodiy ta'sir shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning she'rlari ta'sirida vujudga kelgan asarlar misolida ham kuzatiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur fors-tojik shoirlari bilan bog'liq yozishmalarida o'zining turkiy she'rlari orqali ularning turkiyda ijod etishiga turtki bergan bo'lsa, ba'zan teskarisi. Ya'ni fors-tojik tilidagi she'rlar sabab Boburning o'zi ham shu tilda baytlar yaratadi. Boburning amir Xoja Kalon bilan o'zaro yozishmalari bunga misol bo'ladi. Xoja Kalonning Hindistonning noqulay ob-havosiga dosh berolmay G'azni va Kobulga qaytishga qaror qilgandagi munozarali yozishmasi bunga yaqqol dilildir. Xoja Kalondan forsiy bayt:

*Agar baxayru salomat guzar zi Sind kunam,*

*Siyohro 'y shavam, gar havoi Hind ko 'nam.*

Zahiriddin Muhammad Boburdan turkiy javob:

*Yuz shukr de, Boburki, karimu g'affor,*

*Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.*

*Issig 'lig 'ig 'a gar sanga yo 'qtur toqat,*

*Sovuq yuzini ko 'ray desang G'azni bor.*

Asardagi bu ikki she'riy parcha Boburning o'z atrofidagi kishilar bilan oddiy maktub tarzida emas, balki podshoh va amir o'rtasidagi yozishmalarning ijodkorona ruhda amalga oshirilganligini hamda Boburning badihago'yiligini ham ko'rsatadi. Bu yozishma Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida batafsilroq va biroz farqli berilgan. "Podshoh uni Hinddan G'azni va Qobul hukumatini boshqarish uchun yuborganlar. O'shanda ketayotib ushbu matla'ni yozib jo'natgan ekan" deya Xoja Kalonning Hindistondan ketishi Bobur buyrug'iga ko'ra bo'lganligini izohlanish barobarida yuqorida "Boburnoma"dagi bayt va ruboiy keltiriladi. Hasanxoja Nisoriyning tazkirasida Boburning kinoya mazmunli ruboiysiga Xoja Kalonning bir turkiy ruboiysi va bir forsiy bayti ham ilova qilingan va quyidagicha izohlangan: "Mir Kalonbek unchalik istarasi issiq kishi emas ekan, Shuning uchun podshohning aytganlarini o'ziga olib, javobida yozibdi, ruboiy:

*Izhor latofatu zarofat qilasiz,*

*Har nuktada yuz tuman kinoyat qilasiz.*

*Gar Hind ishi tarskori emas, ne uchun,*

*Issig 'yerdin sovuq zarofat qilasiz?*

Bobur podshohga bu so'zlar og'ir botib, javobida hech narsa yozmabdi. Mir Kalonbek bu sukutdin hadikka tushib, manavi matla'ni yozib yuborgan ekan. Matla':

*Ey podshohi xubon, tokay kuni tag 'ofil,*

*Yodi namekuni hech az oshiqoni Kobil.*

Mazmuni: *Ey xo 'blar podshohi, qachongacha bizga nisbatan g'aflatda bo'lasan? Kobullik oshiqlarni hech bir esga olmaysanmi?"*[3, 103]

Ushbu she'riy namunalar asosida aytish mumkinki, Bobur singari Xoja Kalon ham fors-tojik va turkiy tillarida bemalol ijod eta oladigan "Panohiy" taxallusli mahoratli zullisonayn shoir bo'lgan.

Yoki yana bir misol. "Boburnoma"da 1509-1510 yil voqealari tasvirida Boburning Bajavr qo'rg'onini egallagach, u yerga Xoja Kalonni yuborgani hamda bir-ikki kundan keyin forsiy tildagi qit'ani yaratib, unga jo'natgani aytilgan. Asarda bu quyidagicha bayon etiladi: "Yakshanba kuni, oyning o'n to'rtida Xoja Kalong'a tug' inoyat qilib, Bajavr qo'rg'oniga ruxsat berildi. Xoja Kalong'a ruxsat bergondin bir-ikki kun so'ng bug'ina qit'a xotirg'a keldi. Xoja Kalong'a bitilib yiborildi.

*Qaror-u ahd ba yor inchunin nabud maro,*

*Gazid hajru maro kard beqaror oxir.*

*Ba ishvahoi zamona chi chora sozad kas,*

*Bajavr kard judo yorro zi yor oxir".[9, 163]*

(Mazmuni: Mening yor bilan ahdu qarorim bunday emas edi-ku, Oxirda hajri chaqib, beqaror qildi meni. Zamona ishvalariga kishi nima chora ʻiladi? Oxirda Bajavr yorni yordan judo qildi)

Xoja Kalon bilan bog'liq yana bir misol. Bobur Bajavr qo'rg'onida bo'lgan amiri Xoja Kalonga yo'llagan farmoni hoshiyasiga Xoja Hofizning ushbu baytini o'z qo'li bilan yozib, Sulton Tarohiydan berib yuboradi. "Ushbu majlisda o'q Sulton Tarohiydin bu sorig'a kelgan kayfiyatni mashruh bitib, Bajavrg'a Xoja Kalong'a yiborildi. Farmon hoshiyasida bu baytni bitidim:

*Sabo ba lutf bigo' on g'azoli ra'noro,*

*Ki sar ba ko'hu biyobon tu dodai moro".*

(Mazmuni: Ey tong yeli, u go'zal ohuga yumshoqlik bila aytki, bizni tog'u sahrolarga uloqtirgan sensan).[9, 178]

Ma'lum bo'ladiki, "Boburnoma"da muallifning ayrim turkiy va forsiy she'rlari badiha (ekspromt) tarzida yaratilgan. Masalan, Bayana qo'rg'onini egallashga kirishgan Bobur qo'rg'on amiriga va'da va tahdid bilan ushbu forsiy qit'ani badiha tarzida yozib, Qalandar piyoda ismli kishi orqali yuboradi:

*Bo turk siteza makun, ey miri Bayana,*

*Cholokiyu mardona turk ayonast.*

*Gar zud nayoiyu nasihat nakuni go'sh,*

*Onjoki ayonast chi hojat ba bayonast.*

(Mazmuni: Ey Bayana miri, turk bilan o'ynashma, turkning epchilligi va mardligi hammaga ayon. Agar tez kelib nasihatni quloqqa olmasang, ayon bo'lgan gapni bayon qilishning nima hojati bor). [9, 222]

Bobur turli mazmundagi yozishmalarida ham turkiy, ham fors-tojik tilidagi baytlardan unumli foydalangani holda ikkinchi tomonni mushoiraga ham chorlaydi. Bunga yaqqol misol qilib Boburning fors-tojik shoiri Kamoliddin Binoiy bilan ilk uchrashuvidagi savol-javob mazmunida yaratilgan baytlarini olishimiz mumkin. Bobur Samarqandni ikkinchi marotaba egallaganda, Shayboniy huzurida ma'lum muddat mulozim bo'lgan Kamoliddin Binoiy uning huzuriga keladi. Boburning ulug' amiri Qosimbek undan gumonlanib, Samarqandda qolishini xohlamasdan Shahrisabzga yuboradi. Keyinchalik Kamoliddin Binoiyning fazilatli kishi ekanligi va hech qanday gunohi yo'qligi ayon bo'lgach, Bobur uni Samarqandga chorlaydi. Samarqandga qaytib kelgan Binoiy o'zining qasida, g'azal, ruboiylari va turli navolar bilan Boburni xursand kilganligi, ular o'rtasida zullisonayn shaklda she'riy mushoira bo'lganligi "Boburnoma"da shunday tasvirlangan: "Doim qasida va g'azal o'tkarur edi. Navoda bir amal mening oting'a bog'lab o'tkardi. O'shul asnoda bir ruboiy aytib o'tkardi. Ruboiy:

*Ne g'alla maro k-az o' tavonam no'shid,*

*Ne muhmali g'alla to tavonam po'shid,*

*Onroki na xo'rdanastu ne po'shidan,*

*Dar ilmu hunar kujo tavonad ko'shid.*

(Mazmuni: *Na yegulik g'allam bor va na kiyinishga asragan kiyimim bor. Yeydigani, kiyadigani bo'lmagan kishi ilm va hunarga qanday urina olsin.*)

Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur erdim. Vale g'azal tugatmaydur erdim. Birgina turkiy ruboiy aytib yubordim.

Ruboiy:

*Ishlar bori ko'nglungdag'idek bo'lg'usidur,  
In'omu vazifa bori buyrulg'usidir,  
Ul g'allau muhmalki deb erding, berdim,  
Muhmalg'a bo'yu g'alladin uy to'lg'usidur.*

Mulla Binoiy bu ruboiyning so'ng'gi misraining qofiyasini radif qilib, o'zga qofiya bila bir ruboiy aytib o'tkardi:

*Mirzomki, shohi bahru bar bo'lg'usidur,  
Olamda hunar birla sar bo'lg'usidur.  
Bir muhmal uchun muncha inoyat bo'ldi,  
Musta'mal agar desam, nelar bo'lg'usidur". [9, 81]*

Qizig'i shundaki, bu mushoiraga o'sha kezlarda Shahrisabzdan Samarqandga kelgan Xoja Abulbaraka Firoqiy ham qo'shilib, Kamoliddin Binoiyning jovobiga e'tiroz tarzida "o'shul radif va qofiyada aytmoq kerak edi" deya, o'zi quyidagi turkiy ruboiyni yaratadi:

*Bu javrki qildi davr surulg'usidur,  
Sultoni karam bu uzrni qo'lg'usidur,  
To'kulgan agarchi to'lmas, ey soqiy,  
To'kulgonimiz bu davrda to'lg'usidur.[9, 82]*

"Boburnoma"dan olingan ushbu parchalardan ma'lum bo'ladiki, she'riyat maydoniga endigina kirib kelayotgan yosh Bobur Binoiyning ijtimoiy xarakterga ega, murojaat mazmunidagi forsiy ruboiysiga javob tarzida o'zining ilk tugul turkiy ruboiysini yaratadi. Boburning ruboiysi ta'sirida yana ikkita turkiy ruboiy vujudga keladi. Biri fors-tojik shoiri Kamoliddin Binoiyniki, ikkinchisi Xoja Abulbaraka Firoqiyniki. "Boburnoma"da yozilishicha, Binoiy Bobur ruboiysining "so'ng'gi misraining qofiyasini" radif qilib olib, ruboiy yaratadi. Bizningcha, shu o'rinda matniy xatolik o'tgandek. Ya'ni so'nggi misrasining (to'lg'usidur) emas, balki birinchi misrasining qofiyasini, ya'ni "bo'lg'usidur" so'zini radif qilib olgan. Binoiy Boburdan ilhomlanib, unga izdoshlik asosida o'zining ijtimoiy mazmundagi turkiy ruboiysini yaratadi va o'zining nafaqat forsiyda, balki turkiyda ham qalam tebratgan zullisonayn shoir ekanligini ko'rsatadi.

Bu misollarning barchasi Zahiriddin Muhammad Boburning fors-tojik tilidagi adabiyotga bo'lgan qiziqishi va munosabatini ko'rsatishi bilan birga, turkiy va forsiy tillaridagi asarlari bilan ijodkorlarga adabiy ta'sir etib, ularni ikki tilda asarlar yozishga ruhlantirganligini, shuningdek, o'z saroyida vujudga kelgan adabiy muhitda zullisonaynlikning shakllanishi va rivojlanishining ayrim asoslarini ham belgilaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Азимджанова С. Индийский диван Бабура. -Т.: Фан, 1966. – Стр.127.
2. Алиев Г.Персоязычная литература в Индии. -М.: Наука, 1968. Стр.248.
3. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. Тазкира. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 344.
4. Иномхожаев Р. Тюрко-персидское двуязычие в литературной жизни Индии XVI в. -Т.: Фан, 1993. – 210 стр.
5. Иномхожиев Р. Бобур ва Ҳиндистон туркийзабон адабиёти.// Адабий мерос.-Т.: 1991. 4-сон. 13-19-бетлар.
6. Низомиддинов Н. Буюк Бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср).–Т.: Fan va texnologiya, 2012, - Б.516.
7. Низомиддинов Н.Ғ. Бобурийлар даври Ҳиндистон туркий тили ва адабиёти. -Т.: А.Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи, 2010. – Б. 332.

8. Холикулова Г. Бобур адабий муҳити ва унинг манбалари.//Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 30.11.2021. №10. 974-981-бетлар.
9. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. -Т.: Шарк, 2002. -Б.336.
10. Buriyeva, F. (2024). Zamonaviy she'riyatda diniy-tasavvufiy mavzu va timsollar an'anaviyligi. Miasto Przyszłości, 53, 1347-1350.